

ISLOM MOLIYASI LOYIHALARINI BOSHQARISH VA MOLIYALASHTIRISH UCHUN TAQDIM ETILADIGAN MOLIYAVIY INSTRUMENTLARI

*Ishniyazov Otabek Bahodirovich,
Bank moliya akademiyasi tinglovchisi*

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekiston Respublikasida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish va boshqarishda Islom moliya tizimi mahsulotlari, xizmatlari va amaliyotlari masalalari borasida batafsil ma’lumotlarni yoritilgan. Xususan, islom moliyasining mohiyati, tamoyillari, boshqaruv instrumentlari va mahsulotlari to‘g‘risidagi tushunchalar keng ko‘lamda ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlari. Islom moliyasi, tamoyillar, investitsiya loyihalari, shartnoma va mahsulotlar.

Xalqaro hamjamiyatda daromadi kam bo‘lgan aholiga xizmat ko‘rsatuvchi moliyaviy mexanizm sifatida an’anaviy tijorat tashkilotlari bilan bir qatorda Islom moliya tizimi tashkilotlari tashkil etildi va asta - sekinlik bilan o‘z o‘rnini egallab bormoqda. Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, “2023-yilda taxminan 682 million kishi yoki dunyo aholisining 8.5 foizi o‘ta qashshoqlikda, ya’ni kuniga 2,15 AQSh dollaridan kam daromadga ega”. Qashshoqlikning asosiy sabablaridan biri kishilarning moliyaviy xizmatlardan cheklanganligidir. Zamonaviy moliyaviy instrumentlar qatorida aynan islom moliyasi tizimi aholiga o‘zaro manfaatli moliyaviy xizmatlarni taklif etmoqda.

Dunyodagi hozirgi kundagi keskin vaziyat kam ta’minlangan aholini moliyaviy xizmatlar bilan ta’minlash, turli xil darajadagi loyihalarni moliyalashtirish va ish bilan ta’minlash zaruratini oshirmoqda. Aynan shu maqsadlarni amalga oshirishda Islom moliya tashkilotlari aholiga moliyaviy xizmatlar ko‘rsatuvchi moliyaviy institut sifatida rivojlanmoqda. “Islom moliya konsepsiyasi” jahon hamjamiyati tomonidan qabul qilingan bo‘lib xalqaro tashkilotlar, asosan rivojlanayotgan mamlakatlarda turli xil darajadagi loyihalarni moliyalashtirish, kam ta’minlangan aholini moliyaviy xizmatlar va ish bilan ta’minlash, shu orqali iqtisodiyotni yaxshilash uchun asosiy moliyaviy vositalaridan biri sifatida foydalanilmoqda. Ushbu tizimni joriy qilgan davlatlar amaliyotini tahlil qilish va zamonaviy holatiga baho berish, shuningdek mamlakatimizda yangi moliyaviy xizmatlar turini tashkil qilish masalalari bu boradagi tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biri ekanligidan dalolat beradi.

Shu munosabat bilan, bugungi kunda O‘zbekistonda islom moliyasi tizimi mahsulotlari orqali loyihalarni boshqarish va ularni moliyalashtirishni joriy qilish, Islom moliya tashkilotlarini samaradorligini oshirishga qaratilgan chuqur ilmiy

tadqiqotlar olib borish zaruratini tug'dirmoqda. Ushbu islom moliya xizmatlarini joriy qilish orqali loyihalarni samarali boshqarish va pul mablag'larini aniq, manzilli ishlatish imkoniyatlari yaratiladi. Shuningdek, O'zbekistonda bo'sh ish o'rinlarini yaratish orqali aholi bandligini oshirish va aholining moliyaviy savodxonligini yaxshilash natijasida kambag'allik darajasini qisqartirishga xizmat qiladi.

Islom moliyasi tizimi tashkilotlari quyidagi asosiy 3 ta tamoyilga qat'iy amal qilishi kerak. Bular quyidagilar:

Ribo (foiz) - har qanday ko'rinishi taqiqlangan. Bu oddiy qilib aytganda pulni qarzga hech qanday mehnat qilmay ko'paytirib olish tushuniladi. Har qanday ko'rinishdagi kreditlar bunga misol bo'ladi.

G'arar - noaniqlik, mavhumlik, axborotdan yetarlicha xabardor emaslik hisoblanadi. Bunda sotuvchi va xaridor tovar haqida teng ma'lumotga ega bo'lishi kerak. Buni shariat tomonidan taqiqlashdan asosiy maqsad bir tomonning ikkinchi tomonga nisbatan nohaq ustunlikka ega bo'lishini oldini olishdan iboratdir. G'arar umuman qo'shimcha narsa yaratmaydi balki, kimnidir yutqazishi yoki zarar ko'rishi evaziga daromad olinadi. Masalan, sotuvchi tomonidan urilgan mashinani urilmagan deb sotish, bir qop kartoshkani ustiga yaxshisini terib qo'yib osti ham shunday deb zarar ko'rgan kartoshkalar bilan sotish, bozordagi narxni bilmagan xaridorga mahsulotni bir necha barobar qimmatga sotishi kabilar kiradi.

Maysir - bu asoslanmagan tadbirkorlik bo'lib, omadi kelib hech qanday harakatsiz foyda ko'rish yoki zarar ko'rish tushuniladi. Bunga misol qimor o'yini, ya'ni boylikni mehnatsiz boshqa birovning zarar ko'rishi evaziga tasodifan qo'lga kiritishdir. Futbol o'yiniga pul tikish yoki totalizator, Boriga Baraka va shu kabi teleshow kabilar shu toifaga kiradi.

Islom moliyasi tizimida pul hech qachon tovar (mahsulot) sifatida qabul qilinmaydi. Buning o'rniga pul doimiy ravishda ayirboshlash vositasi, qiymat o'lchovi va hisob birligi sifatida qaraladi, ya'ni Islom moliyasida pul o'z - o'zidan pul (foiz)ni yarata olmaydi. Shuning uchun ham Islom moliya tashkilotlari, xususan banklari birinchi navbatda, savdo, lizing va pul operatsiyalari hamda investitsiya faoliyati bilan shug'ullanadi. Islom banklari foiz ko'rinishida daromad olish maqsadida omonat qabul qila olmaydi yoki qarz bera olmaydi. Islom banklari va ularning mijozlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar turli moliyaviy vositalar yoki shartnoma turlariga qarab farqlanadi. Xususan, Islom moliyasida quyidagi shartnoma va/yoki mahsulotlardan keng foydalaniladi:

Murobaha - bu Islom banklari tomonidan aktivlarni moliyalashtirishda keng foydalaniladigan maxsus savdo-sotiq bitimi bo'lib, bunda sotuvchi mahsulotning xarid narxini, mahsulotni xaridorga yetkazishga bevosita aloqasi bo'lgan xarajatlarni va uning ustiga o'zi qo'ygan ustamani (foydani) xaridorga ma'lum qiladi.

Mushoraka iqtisodiyotning turli tarmoqlarini moliyalashtirishning eng moslashuvchan va qulay vositasi hisoblanadi. AAOIFI xalqaro standartlariga muvofiq, mushoraka (sharika, shirkat soʻzlaridan kelib chiqqan holda) sherikchilik shartnomasidir, ya'ni bu ikki va undan ortiq tomonlar (shariklar) oʻrtasida foyda olish maqsadida, oʻz aktivlari yoki mehnat resurslarini birlashtirish toʻgʻrisidagi oʻzaro kelishuvni anglatadi.

Mudoraba islom moliyasida mavjud boʻlgan eng noyob sherikchilik usuli boʻlib, unda bitta sherik biznesni boshlash va/yoki yuritish uchun zarur boʻlgan pul mablagʻlarini sarmoya sifatida taqdim qiladi, boshqa sherik esa ushbu mablagʻlarni samarali va oqilona boshqarish orqali daromad keltiradigan faoliyatga investitsiya kiritadi.

Ijara – bu mol-mulkdan ma'lum muddat davomida haq evaziga foydalanib turishni anglatadi.

Takaful arabchada “kafala” soʻzidan kelib chiqqan boʻlib, kafolat berishni anglatadi. Yanada aniqroq aytadigan boʻlsak, bu soʻz “kafolat” va “bir – birini ximoya qilmoq” ma'nolari bilan “takafala” fe'lidan kelib chiqqan va oʻzaro yordam berish ma'nosini anglatadi. Bunda har bir a'zo oʻzaro ximoya shartnomasi boʻyicha muhtoj a'zolarga yordam koʻrsatish maqsadida umumiy fond (jamgʻarma)ga moddiy yordam koʻrinishida oʻz xissasini qoʻshadi.

Islom moliya tizimi oʻzaro ishonch, axloq, hurmat, risklarni taqsimlash, majburiyatlarga toʻliq rioya qilish va foydani adolatli hamda xaqqoniy taqsimlash tamoyillariga asoslanadi. Bu faqatgina oʻz foydasini olishga qaratilgan an'anaviy banklardan farqli oʻlaroq, islom banklarining oʻz faoliyati davomidagi yakuniy natijalaridan manfaatdorligini ta'minlaydi. Islom banklari nafaqat bank bozorining, balki butun moliya tizimining barqaror rivojlanishini shakllantirishga yordam beradigan oʻziga xos xususiyatlar majmuasiga ega.

Tadqiqotimiz natijalaridan shunday natijalar olishimiz mumkinki, islom moliyasi Oʻzbekistonda tadbirkorlar uchun zarur boʻlgan yangi dolzarb sohadir. Loyihalarni moliyalashtirishda alternativ mahsulotlarning paydo boʻlishi aholining moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini yanada kengaytirishga yordam beradi. Rivojlanayotgan islom moliya tizimiga oid xorijiy davlatlarning tajribasi, eng avvalo shuni koʻrsatmoqdaki, tegishli me'yoriy-huquqiy bazani ishlab chiqish, tegishli infratuzilmani shakllantirish, aholiga tushuntirish ishlarini olib borish, investor davlatlar bilan xalqaro hamkorlikni mustahkamlash zarur.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. ADB. (2018) Financial Inclusion, Regulation, and Literacy in Uzbekistan <https://www.adb.org/sites/default/files/publication/441226/adbi-wp858.-pdf>
2. Abdullah, Z., & Susanto, A. A. (2019). The role of investment-based Islamic crowdfunding for halal msme: evidence from indonesia. Al-Iqtishad: Jurnal Ilmu

Ekonomi Syariah (Journal of Islamic Economics), 11(2).

<https://doi.org/10.15408/aiq.v11i2.13623>

3. Elasrag, H. (2016). Islamic finance for SMES. Journal of Economic and Social Thought, (October). <https://doi.org/10.1453/jest.v3i3.1009>
4. Iqbal, Z. (1997). Islamic Financial Systems. Finance & Development, (June). <https://doi.org/10.4337/9781843762959.00012>